

## **QIZLARNI MAFTUN ETGAN AJOYIB CHOLG`U**

*Sh.Usmonova.  
Andijon davlat universiteti  
Musika ta’limi kafedrası o`qituvchisi*

Zamonaviy jarayonda o`tmish an`analariga yangicha qarash, ilg`or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e`tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya`ni insonlarni ruhiy hamda ma`naviy tarbiyasiga asos bo`la oladigan omil sifatida qaraladi. O`quv-ta`lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e`tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir.

Musiqiy cholg`ular insoniyat ma`naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, yani xalq ijodiyoti mahsuli bo`lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasaliib, tobora mukammallashib kelayotgan mo`jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg`ularda har bir xalqning milliy g`ururi, an`anasi, qadriyatları o`z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg`ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo`lib xizmat qiladi. Tarix davomida doimo musiqiy cholg`ularga bo`lgan e`tibor katta bo`lishi bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo`lib kelgan.

Musiqiy cholg`ular va ular bilan bog`liq namunalar xalq musiqa ijodiyotining ahamiyatga ega bo`lgan tarkibiy qismini tashkil etadi. Hozirgi davrgacha yuzaga kelib, amaliyotda o`z o`rnini egallagan va ijrochilik amaliyotining yuqori saviyaga ko`tarilib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi. O`zbek xalq cholg`ularining har birini texnik jihatdan va tarannum darajasiga ko`ra ilg`or cholg`ular darajasiga kiritish mumkin. Ularning aksariyat namunalari boy ijroviy imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi bilan ajralib turadi.

Aynan chog`ular tarannumining rang-barangligi (yakka, qo`sh, ansambl va orkestr), ularning yuqori professionalizm darajasiga erishganligi hamda katta imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon etadi.

O`zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg`ularimiz o`zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o`rin tutadi. Musiqiy cholg`ular azal-azaldan O`zbek xalqining ma`naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog`lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o`ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg`u ijrochiligi san`ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg`otib kelmoqda. Uning barcha o`ziga xos xususiyatlari va qirralarini o`rganish esa cholg`u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Sharq xalqlari cholg`ular ijrochiligi san`ati o`z taraqqiyotida ko`p asrlik an`analarni meros qilib olgan bo`lib, unda asosan an`anaviy ustoz-shogird uslublari keng rivojlangan. Ya`ni bu an`ana ustozdan-shogirdga, otadan-o`g`ilga asrlar davomida og`zaki yo`l bilan o`tib kelgan.

Bugungi kunda esa zamon talablariga javob beruvchi o‘zbek xalq cholg‘ularini o‘qitish uslubiyotiga ta’limning har bir bosqichida (boshlang‘ich, o‘rta, oliy) alohida o‘ziga xos ravishda yondashib kelinmoqda. Ayniqsa, dutor cholg‘usi qizlarimiz orasida keng urf bo‘lgan cholg‘ular sirasiga kiradi.

**Dutor** - tojik tilida ikki tor ma’nosini beradigan, eng sevimii va ommalashgan O‘zbek musiqiy cholg‘ularidan biridir. Dutor kuylari asosan birinchi torda ijro etiladi, ikkinchi tor o‘sha kuyga qo‘shilib, doimiy sado berib turishi ushbu cholg‘uni boshqa cholg‘ulardan ajratib turadi. Shuning uchun ham dutor kuylarini no‘talashtirilganda har ikkala tordagi notalar ko‘rsatilishi shart. Bu o‘ziga xos murakkabliklar tug‘diradi. Dutorning sadosi juda mayin bo‘lib, tovush tembri baland bo‘lmasdan quloqqa juda yoqimli va yaxshi eshitiladi. Ba’zi cholg‘ular doyra jo‘rligisiz ijro etilishi qiyin bolgani holda, dutorning o‘zida usulni chalib borish imkoniyati, uni yakka holda ham yaxshi qabul qilishga yordam beradi. Dutor sadosi aniq va yaxshi eshitilishi uchun tanbur yoki g‘ijjak bilan birgalikda, shuningdek kichik cholg‘u jamoalarda foydalangan ma’qul.

**Dutor prima** - dutorning kichraytirilgan bir turi hisoblanadi. Buning qopqog‘i tut o‘rnida archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlari o‘rniga ichak tor tortiladi. Pardalar dastasini o‘yib xromatik holda doimiy o‘rnatilgan. Torlari kvarta va unisonga sozlanadi. Bu asbob, dutorlar oilasiga mansub bo‘lib, ushbu cholg‘u asbob eng baland tovushga ega. Orkestrda solo va jo‘navoz bilan ijro etiladi.

**Dutor bas** - bu cholg‘u eng birinchi bo‘lib 1948-yil Toshkent Davlat konservatoriyasida yasalgan. Dutor bas asbobi O‘zbek xalq cholg‘u ansambli tarkibida bas tovushini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ushbu asbobni sozanda o‘tirgan holda ijro etadi, dutor bas - dutorning katta qilib ishlangan turi. Dutor bas kvinta intervaliga sozlanadi, uning 4-ta tori mavjud, bular to‘rtinchi “do”, uchinchi “sol”, ikkinchi “re”, birinchi “lya” “lya tori ichakdan qilinadi qolganlari esa metallardan yasalgan. Notalar eshitilishi bo‘yicha bas kalitida yoziladi, ovoz hajmi katta oktavadagi do dan birinchi oktavadagi solga qadar.

**Dutor kontrabas** - bu chog‘u dutorlar oilasining eng yirik shakli ya’ni bu asbob dutor basdan ancha kattaroq qilib ishlangan variantidir. Dutor kontrabasning kosasi katta – katta “qobirg‘acha”lardan iborat, dastasi dutor bas asbobidan uzunroq bo‘ladi, quloqlari esa temir metallardan ishlanib, qattiq tortilib turush vazifasini bajaradi. Bu asbobning torlari juda qalin bo‘lib, orkestrda yo‘g‘on bas tovushi bilan farq qiladi. Dutor basning kosasiga maxsus tayyorlangan tayoqcha o‘rnatilib o‘tirgan holda ijro etiladi.

Takomillashtirilgan O‘zbek xalq cholg‘ulari, shu jumladan dutorlar oilasi ham yangi turdagi ansambl va orkestrlardan munosib o‘rin egallagan.

Mamlakatimizda sozandalikni o‘ziga kasb qilgan ijrochilar birinchi o‘rinda o‘z cholg‘ularining imkoniyatlarini botiniy va zoxiriy xususiyatlarini mukammal bilishlari zarur.

O‘zbek xalq cholg‘ularini yanada sifatini yaxshilash, ijrochilik maxoratini oshirish, yangi uslubiyot va repetuarlarni boyitish, biz kabi ijodkor yoshlardan izlanish, o‘z ustida tinmay mehnat qilishni taqazo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Oripov Z. “Sharq musiqiy manbashunosligi” (X-XI asrlar). - T., 2008
2. Shukurova F.” Cholg‘u ijrochiligi tarixidan”. - T., 2005.
3. Odilov A.” O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. - T., 1995.
4. Qosimov B. “Milliy uyg‘onish. —Ma’naviyati”. T.: 2002.
5. Семёнов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиш Али. - Т., 1946.
6. Вызго Т, Петросянц А.” Оркестр узбекских народных инструментов”. - Т., 1962